



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TANQIDIY FIKIRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Sheranova Maryam Bazarbaevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasи katta o'qituvchisi  
(PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikirlashni rivojlanterish to'g'risida asosiy tushunchalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tanqidiy, psixologlar va faylasuflar, Bryusseldagi, «notanqidiy fikrlash»

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi. Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomonidan faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish va ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Taqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".

O'sib kelayotgan o'quvchiyoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz o'ylaymizki, ushbu o'quvchi-yoshlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishadi. Biroq, bunga erishish uchun maktablarda tanqidiy fikrlashni yaxshilashlari uchun o'quv dasturlari ko'proq amaliy mashg'ulotlarga tayangan holda integratsiya qilinishi kerak.

O'qituvchilar, psixologlar va faylasuflar bu borada bir fikrda bo'lishsa ham tanqidiy fikrlashning ahamiyati, kontseptsiyasi nimani anglatishi haqida hali ham kelishuv mavjud emas va o'qituvchilarini amaliyotda qo'llash uchun qanday tayyorlanishi kerakligi haqida bahs muzokazalar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu kontseptsiyani qanday qabul qilishlarini va ular o'zlarining maktablarida qanday professional fon tariqasida tanqidiy fikrlash tajribasini olib kelishlarini o'rganish edi.

Bryusseldagi (Belgiya) uchta Yevropa maktabida jami yigirma bir o'qituvchi yarim tizimli suhbatlar orqali so'roq qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar tanqidiy fikrlash tushunchasini yaxshi tushunadilar. Ular tanqidiy fikrlashni turli strategiyalar orqali faktlarni tahlil qilish, boshqa faraziy vaziyatlarni idrok etish va aniq faktlar bo'yicha shaxsiy fikrlarnishakllantirish va takomillashtirish qobiliyati deb hisoblaydilar.

O'qituvchilarining fikriga ko'ra, bular tanqidiy fikrlovchining asosiy xususiyatlari: turli xil madaniy muammolarga nisbatan fikr yuritish, hamkorlik qilish, tahliliy va ochiq fikrlash haqida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchilarining maktabdagagi ta'limi, natijalar, bir tomonidan, fikrlash xaritasini tuzish, guruh muhokamasi va sinfda tanqidiy fikrlashni faol o'rganish va rivojlanterish uchun hisobga olinadigan tegishli amaliyot ekanligini ko'rsatadi.



Boshqa tomondan, ular o'zlarining tajribalari hali ham cheklanganligini takidlaydilar. Ularning kasbiy tajribasiga kelsak, ular o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida loyihaga asoslangan ta'lif va bolalar uchun falsafa orqali tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishni uchratganliklarini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ular bu sohada hali ham tengdoshlarni o'rganish va o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida ilg'or tajriba almashish orqali qo'shimcha yordam ko'rsatish zarurligini takidlaydilar. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli -tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqt dagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash "yakkayu yagona to'g'ri javobni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud . Buning uchun: -tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish; -o'quvchi-yoshlarlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish; -turli -tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish; -o'quvchi-yoshlarlarning o'quv jarayonidagi faolligini taminlash; -o'quvchi-yoshlarlarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak; -har bir o'quvchi-yoshlarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o,zlarida ishonch hissini uyg'otish; -tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Shu munosabat bilan o'quvchi-yoshlar: -o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalaringning qadrini tushunish; -o'quv jarayonida faol ishtirok etish; -turlicha fikrlarni etibor bilan tinglash; -o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan

bu tushuncha haqida gapirishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko'nikmalarini ko'rib chiqaylik, lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Esda saqlash – eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'quv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar har qanday fikrlashdan ko'ra xotirani rivojlantirishni yuqoriyoq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asosan talabalar xotirasi ko'lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdarlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

O'quv jarayonini usiz amalga oshirib bo'lmaydigan «notanqidiy fikrlash» turlaridan yana biri – murakkab g'oyalarni tushunish bilan bog'liq. Biologiya va matematika, tarix va adabiyot darslarida talabalar ba'zan o'qituvchining aytganlari yoki darslikda nima haqida yozilganligini tushunish uchun ancha «bosh qotiradilar». Tushunish, ayniqsa, agar o'quv materiali qiyin bo'lsa, murakkab aqliy jarayon bo'lib hisoblanadi. Masalan, talaba murakkab teoremani tushunish uchun bosh qotirmoqda. Albatta uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin buni ham hozircha tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Biz o'zgalar fikrini tushunish ustida ishlar ekanmiz birinchi bosqichda bizning shaxsiy fikrlashimiz sust bo'ladi: bunda biz faqat bizgacha kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilamiz xolos, tanqidiy fikrlash esa, yangi, tushunib bo'lingan g'oyalalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo'llanayotganda sodir bo'ladi. Dalillarni eslab qolish va g'oyalarni tushunish esa tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan dastlabki shartlar bo'lib hisoblanadi, lekin ular o'zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydilar.



«Taqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo‘ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.

U holda «taqidiy fikrlash» nima?

«Taqidiy fikrlash» atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko‘pchilik o‘qituvchilar va metodistlar uchun taqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi – yuqori degani shu ma’nodaki, U Benjamin Blum tizimiga ko‘ra o‘rganish qobiliyatlarining so‘nggi oliy pog‘onasida turadi. Faylasuflar taqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o‘qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o‘z fikrlarini aniq va o‘ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilar va tarixchilar uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta’sir qilish usullarini taqidiy qayta mushohada qilishga xamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sababalarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish «taqidiy» deb hisoblanadi.

Dayana Xalperi «Psixologiya kriticheskogo myishleniya» kitobida taqidiy fikrlash «fikr yuritishning shunday ko‘rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo‘naltirilganlik bilan ajralib turadi», - deb yozadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templaarning «Taqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish» (O‘YoTF) loyihasida quyidagicha ta’kidlanadi: «Odam taqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarini ham e’tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘srimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi». Taqidiy fikrlash – g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtida ro‘y beradigan jarayon ham bo‘lib hisoblanadi. Taqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo‘ladilar.

Taqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darjasasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo’llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi. Taqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Taqidiy fikrlash ta’lim jarayoniga jo‘shqinlik baxsh etadi, mashg‘ulotlarni o‘qituvchi va talaba uchun quvonchga aylantiradi.

Hozirda talabalarni o‘qishga o‘rgatish va taqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, talabalar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o‘z ehtiyoj va maqsadlari yo‘lida foydalana olish imkoniyati to‘g‘risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy taqidiy fikrlaydigan odam bo‘lib yetishish uchun talabalar ijodiy fikrlab, o‘zini sinab ko‘rishi va bunga oid malakalarini egallashi zarur.



Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e‘tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mayjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi».

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’nnaviy-axloqiy tarbiyalashda ta’lim-tarbiya tizimiga innovatsion, ya’ni ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish davr talabi bo‘lib kelmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsida yaxshilik, mehribonlik qilish, shirinso‘zlik bilan muomalada bo‘lish kabi ma’nnaviy sifatlarni shakllantirishda o“qish, ona tili, musiqa darslarining imkoniyatlari juda kattadir. Chunki mazkur predmetlar bo‘yicha darslar tuyg‘ular va hissiyotlar asosida qurilayotgan mashg‘ulotlardir. Shuning uchun darslarda bolalarni tushunish, ularni his qilish, his tuyg‘ularini qadrlashni o‘qituvchi diqqat markazidan turishi kerak.

Nafosat tarbiyasi – yoshlarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi nafosatni idrok qilish orqali, ularda go‘zallika ijobiy munosabat uyg‘otish va o‘zlarining hayot tarziga go‘zallikni olib kirishni tarbiyalashdir. Nafosat tarbiyasi –eng avvalo xar bir yoshda badiiy hissiyot tuyg‘ularini, badiiy didni tarbiyalashga qaratiladi. Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki, u har bir yoshni o‘zini nazorat qilishga sa‘y-harakatlarini tartibga solishga odatlantiradi. Nafosat tarbiyasining, mazmuniga xalqimizning boy madaniy merosini xalqning nafosatga oid bilimlarini badiiy didini xalqimizning ma’naviyatini, sog‘lom turmush tarzini kirtsak bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaeva N.A., To‘raev B.N., Nurmatova N., “Kashfiyotlar olami” asosiy umumta’lim dasturini ishlab chiqishda bolalar tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishish monitoringi tizimi. -T.: Ilm-fan, 2019.
2. Lvov, M. R., Ramzaeva , T. G. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi. Pedagogika institutlari talabalari uchun maxsus darslik. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va metodikasi”. - Nukus: Ta’lim, 2020.
3. Rasulova N.N. Bola gapirishni o‘rganadi/Vestnik nauki i obrosovaniya, 2022. №5.
4. Jabborov S.S. Fikrlash va nutqning psixologik asoslari. – M-T.: Labirint-Ilm-fan, 2019